

HIKOYANAVISLIKDA AHMAD A’ZAM IFODA USLUBINING O’ZIGA XOSLIGI

Azimova Maftuna Olimqul qizi

Buxoro davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ahmad A’zam qalamiga mansub bo’lgan hikoyalar tahlil qilinib, ulardagi boshqalarga o’xshamaydigan jihatlari, ifoda uslubi tahlil qilinadi, misollar orqali yoritiladi.*

Kalit so’zlar: *Ahmad A’zam, hikoya, uslub, ifoda, real hayot, go’zallik.*

Аннотация: *В данной статье анализируются рассказы, принадлежащие перу Ахмада Аъзама, раскрываются их отличительные черты и стиль выражения, рассматриваются с помощью примеров.*

Ключевые слова: *Ахмад Аъзам, рассказ, стиль, выражение, реальная жизнь, красота.*

Abstract. *This article analyzes the stories written by Ahmad A’zam, highlighting their distinctive features and expression style, illustrated through examples.*

Keywords: *Ahmad A’zam, story, style, expression, real life, beauty*

Ma’lumki, adabiyotimizda hikoya janri o’ziga xos o’rin egallagan. U orqali ijodkor o’quvchining qalbiga uzundan uzoq asarlar bilan emas, balki, kichik, ammo teran o’ylashga chorlaydigan, xayolga toldiradigan kichik hikoyalari orqali kirib boradi. Ahmad A’zam ana shunday qalami o’tkir ijodkorlardan biri desam mubolag’a bo’lmaydi. U yaratgan asarlari bilan adabiyotimizda munosib o’rin egallagan. Bu esa, ayniqsa, uning hikoyalarida bilinadi. Uning hikoyalari o’zining teran ifoda uslubi, real hayotni hech qanday go’zallik, bo’yoqlarsiz ifoda etilishi bilan ajralib turadi. Qahramonlari ham kuch-qudratga to’lgan xayoliylik ila bo’rtirilgan insonlar emas, balki siz-u bizga tanish bo’lgan oddiy insonlardir. Deyarli barcha hikoyalarida qahramonlar ichki his-tuyg’ularga boy, hissiyotiga berilgan, o’zi bilan o’zi gaplashadigan, fikrlashadigan, chin ma’noda o’zidan boshqalar ularning dunyoqarishini o’zi kabi his qila olmaydigan ichki “men”iga ega bo’lgan shaxslardir. Bularga: “Soyasini yo’qotgan odam”, “Go’zallik qirralari”, “Qatag’on yili”, “Oyning gardishi”, “Odamning olasi”, “Almisoqdan qolgan Karim”, “Kichik ilmiy xodim Hamdamov” va boshqa hikoyalarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Bu hikoyalarda adib sodir bo’layotgan voqea-hodisalarni oddiy, soda, jo’ngina, xuddi-ki oldingizda bo’ladigandek ifodalaydi. Qahramonlarning ham tili, gapirish uslublari ham o’ziga xos:

so'zlarni "qog'ozga o'rab o'tirmaydi, xayoliga nima kelsa gapiradi. Bu orqali yozuvchi insonlar foydalanadigan, sheva, so'zlashuv tillarini yuzaga chiqaradi. Masalan "Go'zallik qirralari" hikoyasida bosh qahramonning o'zi suymaydigan inson Begimqulni ta'riflarini keltirib o'tadi:

"Turibdi hishshayib! Eshikni odamga o'xshab ochsa mayli. Bu... shir etib tortadi-da, turaveradi. Zabon yo'q. Gapni tilanib olamiz";

"O'zi-ku, odam degan xudoyim bergan har bir kunga shukr qilib yashashi kerak. Kun bilan kunning farqi yo'q. Lekin bu dunyoda Hebbimga o'xshaganlarga hamroh bo'lsang, tag'in ertalabdan ko'zingga cho'pdek qadalib tursa, kufrga botasan";

"Hebbim ham xudoyim yaratgan jonzot, yelkaning ustida bir po'stkalla, po'stakning tagida yiltir ikkita teshik... Lekin buning qiliqlariga sira chidab bo'lmaydi";

Yuqorida keltirgan monologlarim bosh qahramon xayolidan o'tkazgan so'zlar hisoblanadi.

"O'zi oti asli Begimqul bo'lgan; hujjatida "qul"ini yozishmagan. Men uyqashtirib Hebbim deymen, ichimda, albatta", bundan ko'rinadiki, bosh qahramon kasbdoshini qanchalar yoqtirmasin, u haqida biror-bir yomon fikr yonidagilarga gapirmaydi. Uning bu ta'riflari xayolida bo'ladi, o'zi bilan o'zi muhokama qilib gaplashadi, gohida fikrlarini ma'qullab tasdiqlaydi, gohida inkor qiladi.

Shunday holatlarni "Odamning olasi" hikoyasida keltirilgan dialoglarda uchratishimiz mumkin:

"O'g'lingda kalla bo'lmasa senda bordir? Sen esingni yeb qo'ymagandirsan? O'qishdan-ku birinchi imtixondayoq oyog'i osmondan bo'lib qaytdi. Endi bu nag'mani o'ylab topdimi? Noyabrda lip etib armiyaga olib ketsa... E, hali xotinning ma'nisini qaydan biladi bu! ; yoki

"Yo'q, u mening o'g'lim emas, mo'ltonining to'rvasidan tushib qolgan, begona! Mol davlatni narigi dunyoga orqalab ketaman, deb o'zim uchun to'pladimmi! O'pkam og'zimga tiqilib ertadan qora kechkacha kim uchun chopaman? Bittayu-bitta farzandim, shuni odam soniga qo'shay, deb yuribman-ku axir! Kabi dialoglarda muallif tomonidan qahramonlarga singdirilgan so'zlashuv uslubidagi gapirish ko'nikmalarini ko'ramiz.

Ahmad A'zamni hikoyanavislikda bergan yan bir iste'dodi sifatida uning qahramonlari ko'p kitob o'qigan insonlar sifatida ham namoyon bo'lishidir.

Masalan, "Soyasini yo'qotgan odam" hikoyasida bosh qahramon(ismi berilmagan) ko'plab kitoblar o'qiganligi tufayli soyasini yo'qotib qo'yadi. Bu real hayotda bo'lishi mumkin bo'lmagan hodisani muallif ramziy ma'noda keltirgan. Asarda muallif ilmliligi, kitoblardan olgan bilimlari natijasida o'zgalardan ajralib turadi bu esa uning tashqi ko'rinishida, ya'ni soyasini yo'qotishi bilan aks etadi. Besh qo'l barobar emas, deganlaridek

buni to'g'ri tushunmaydigan, noto'g'ri ayblov qiladigan insonlar ko'pchilikni tashkil qilgan. Masalan, shu hikoyada qahramon soyasini yo'qotib qo'ygandan keyin insonlar unga ideologiyasi buzuq, g'oyaviy yot, be'mani adabiyotlarni ko'p o'qiydi, asosan chet el adabiyotini, deya aytishadi. Lekin aslida shu jamiyatdan fikri ideologiyasi buzuq insonlardan farq qilishi uchun ham, aslida, shunday holat yuz bermadimikan?

Yoki huddi shunday holatni “Oyning gardishi” hikoyasida kichik bola Maqsudning kata akasi o'qimishli bo'ladi va uning otasini u haqidagi bergan fikrlarida ko'rishimiz mumkin: “Boshlarida soyabon shapka, oyoqlarida yirtiq batinka, ilingan magazinching ustidan yozadi, yulg'ich, muttaha deb. Beshkapadagi Abdullaning o'g'li shuning dastidan qamalib ketdi. Sherqulning to'yiga borganimda xotini oldimga beshta bolasi bilan chiqdi. Yer yorilmadi yerga kirsam. O'g'lim qo'y shu ishingni, odamlarni qon qaqshatma, dedim. Qilmadi” ;

“... endi aspiranturami, paspiranturami degan kata o'qishga kirarmish. Bunday tanangga o'ylab ko'r, to'rtta bolang bor, yoshing ham qirqqa bordi. Olim bo'lish osonmi, buning uchun o'n yigirma yil umr kerak. Ellik-oltmishga borib olim bo'lganingda elga qanday karomat ko'rsatarding! kabi gaplarida guvoh bo'lamiz. Bunda oddiy qishloq aholisining soddalik bilan aytilgan fikrlari. Bu paytda o'qishni to'g'ri tushunmagan, o'qigan kishi bizni tanimaydi, degana qarashlar bo'lgan. Shu sabablarni da'vo qilib qiz bolalarni o'qitishmagan. Natijada qizlar savodsiz, o'z haq-huquqini bilmaydigan, fikrlash doirasi tor bo'lib ulg'aygan. Ammo besh qo'l barobar emas deganlaridek, bu kabi fikrlarni chetga surib farzandini o'qishi, bilim olishi uchun hech narsani ayamaydigan insonlarimizning borligi tahsinga sazavordir. Buni adibning “Odamning olasi” hikoyasidagi Sherqo'zi misolida ko'rishimiz mumkin. Sherqo'zi o'g'lini o'qitib kelajakda o'z sohasini topishi uchun harakat qiladi. Uni o'zicha uylanmoqchi bo'lganida fikridan ajoiyib tarzda qaytarib yo'lga soladi. Qizig'i shundaki, ota buning uchun farzandini na uradi, na qattiq gapiradi hammasini “silliq”(bunga hikoyani o'qigan vaqtingizda guvoh bo'lasiz) hal qiladi va o'g'lini o'qishga jo'natadi.

Ahmad A'zam o'z hikoyalarida ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini ham qalamga olgan. Ularni muallif hech qanaqa ortiqcha qo'polliklarsiz, shunchaki gap ichida aytib o'tib ketadi. Dono kitobxon esa darrov ilg'ab olishi tayin. Bu kabi holatlarni “Qatag'on yili” hikoyasida harbiy yigitga bo'lgan boshliqning muomalasida ko'ramiz. U qanchadan qancha vaqtini berib shu yerda odamlarni gap so'ziga duchor bo'lib, ularga o'zi xohlamay yig'ilishlaridan chetlashtirib shu hududni muhofaza qilib tursa-da, ammo u o'zini balandparvoz tutib olgan boshliqlar tomonidan hech qanday ahamiyatga ega emasligini, turtilib ko'chada loyga bostirilib, urib ketishlarida ko'ramiz. Ular uchun shunchaki topshiriqni bajaradigan bir yugurdak sifatida baholanishiga guvoh bo'lamiz.

“ Soyasini yo’qotgan odam” hikoyasida qahramon soyasini yo’qotganda uni jazolash uchun umuman ahamiyatga ega bo’lmagan majlis o’tkazilishi, umuman aloqasi bo’lmagan ayblovlar qo’yilishi, yoki uni ko’rish uchun kazo-kazo boshliqlar-u insonlar kelib vaqtini behuda narsalarga sarflashi real, istehzoli va kinoyaviy kulgili holatda ochib beriladi.

“ Oyning gardishi” hikoyasida o’g’lining otasi dindor bo’lgani, jamoat bilan namozlarda ishtirik etgani sababli davlat ishlaridan amal ololmagani va chetlatilganiga guvoh bo’lamiz

Yuqorida Ahmad A’zamning hikoyalaridan bir nechtasini keltirdim. Ulardagi ifoda uslubining ham ozroq qismiga to’xtalib o’tdim. Aslida, ijodkorning asarlari bu kabi muhokamali jihatlarini o’z ichiga qamrab olgan o’rinlari anchagina. Shu sababdan ham uning hikoyalari badiiy jihatdan barkamol deya ta’riflanadi. Bir qaraganda kitobxon uning asl ma’nosiga tushunmaydi, voqealar rivojiga qo’shib keta olmaydi, muallifning “tili”ni anglamaydi. Lekin, asarni qayta-qayta o’qib chiqqanda ana shu murakkablikni tahlil qilib, asarga qiziqish bildiradi.

Ahmad A’zamning o’zi ham o’z ijodi haqida shunday deydi: “Qanaqa yozuvchi ekanimga o’zim bir narsa deyishim qiyin, bahoni kitobxon beradi. Men qanaqa yozuvchi bo’lishga intilganimni gapiryapman. Shu o’qish, o’rganishlar maromida o’quvchi kitobxonni hurmatlab, unga aql o’rgatavermaslik, hayot haqida uning o’zi ham biladigan xulosalarni tiqishtirmaslik, tendensiya-yu mafkuradan qochish, xolis turib tasvirdan fikr chiqarib olishni o’quvchining o’ziga qoldirib yozish yo’lini tanlashga harakat qildim”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad A’zam. Adabiy asar til hodisasi. Adabiy suhbat//Yoshlik, 2012. №6.
2. Eshonqul N. O’ziga o’zi gapirayotgan odam // Kitob bandasi. – T.: Akademnashr. 2022.
3. Faxriyor. Ham adib, ham munaqqid, ham tarjimon. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ahmad-azam-haqida.html>.
4. Ahmad A’zam. Soyasini yo’qotgan odam //Toshkent//Sharq, 2004 .
5. Ziyouz.net internet sayti